

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



JAHON ETNOLOGIYASI
FANINING O'QUV DASTURI

- Ta'lim sohasi:** 220000 – San'at va gumanitar fanlar
Bilim sohasi: 200000 – Gumanitar soha
Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Antropologiya va etnologiya

Toshkent – 2022



Mark

2

(B1)

shear

Dick

Fan/modul kodi JE12-516	O‘quv yili 2022-2023 2023-2024 2024-2025	Semestr 2,3,4,5	ECTS — Kreditlar 4,4,4,4		
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4,4,4,4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)		
	JAHON ETNOLOGIYASI	192	288		
I. Fanning mazmuni					
<p>Fanni o‘qitishdan maqsad – Ushbu fanni o‘qitishdan maqsad talabalarni “Jahon etnologiyasi” kursining mazmuni bilan tanishtirish, etnos nazariyasi, etnogenezi va etnik tarix, etnoslarning an‘anaviy va zamonaviy faoliyati formalarni, etnoslararo kommunikatsiya xususiyatlari, xalqlarni kelib chiqishi va tarqalishi, til va antropologik xususiyatlari, dunyoning etnik xaritasi, va x.k. larni o‘zlashtirishini ko‘zda tutadi hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.</p>					
<p>Fanning vazifasi – XX asr so‘nggidagi voqealar insoniyatni yana bir bor etniklik muammolariga e’tiborini qaratishiga olib keldi. O‘zaro madaniy aloqlar, Yevropaning birlashuvi, ko‘pmillatli davlatlarning parchalanishi, aggressiv millatchilik, etnik mojarolar insoniyatning yagona gumanistik birlik ekanligi haqidagi hayollarni inkor etdi. Shu sababdan hozirgi kundagi etnik jarayonlarni chuqur o‘rganish ehtiyoji tug‘ildi. Ushbu fanning vazifasi talabalarda etnologik bilimlarni ham amaliy ham nazariy shakllantirishdan iborat. nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, talabalarga Jahon etnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini hamda jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish.</p>					
<p>II. Asosiy nazariy qism (maruza mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi va tadqiqot usullari</p> <p>Jahon etnologiyasi fani predmeti: mohiyati va muammolari. Jahon etnologiyasining maxsus atamalari, tadqiqot uslubi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. XX asrda etnografiya va etnologiya fanning ravnraqi. Etnologiyaning tarixi, antik va o‘rta asrlarda etnografiya, XIX asrning</p>					

o'rtalarida xalqlar haqidagi mustaqil fan shakllanishi, turli xalqlar madaniyatlari orasidagi farqlarini, etnik psixologiya xususiyatlarining shakllanishi omillarini, ijtimoiy tizimlar, madaniyatlarning rivojlanishi va inqirozi sabablarini aniqlashda etnografiyaning roli hamda XX asrda etnik omilning madaniy — tarixiy jarayonidagi ahamiyati, "Primitiv" xalqlar etnologiya predmeti sifatida, etnologiyaning zamonaviy yo'nalishlari haqida umumiyl tasavvur berish.

2- mavzu. Etnologik nazariya tarixidan: evolyutsionizm, diffuzionizm, strukturalizm, tarixiy etnologiyaning amerika maktabi, funksionalizm, madaniy relyativizm

XIX asr o'rtalaridan etnologiyada katta o'zgarishlar boshlanib fanning ichida o'uplab yangi yo'nalishlar va maktablar shakllana boshlanishi; Darvinnin tabiiy fanlardagi evolyusionizm g'oyasi, Evolyusion g'oyani turli mamlakatlardan etnologlari: Gerbert Spenser, Eduard Taylor, Teodor Vays, Genrix Shurs (Germaniyadan); Sharl Leturno (Fransiya); Lyuis Genri Morgan (AKDO yuksaltirishi, ingлиз olimi Eduard Taylor (1833-1917) evolyutsion nazariya asoschisi ekanligi, Taylorning madaniy borliq umuman insoniyat madaniyatining doimiy taraqqiyotda bo'lishi nuktai nazari, Evolyusionizmdagi metodologik inqirozi, diffuzionistik maktablarni shakllantirishga yo'l ochishi, Myunxen universiteti professori Fridrix Ratsel (1844-1904) diffuzionizmning asoschisi; yangi yo'nalish cheklangan davrdagi tarixiy muammolarni, xususan madaniyat va uning alohida elementlarini hududiy shakllanishi, ularni rekonstruksiya qilish va tarqalishini tadqiq etishi xususida, diffuzionizmning madaniyatni o'rganishda asosiy tamoyillari, Frobeniusning qarashlari, Frans Grebner (1877-1934) nemis tilli mamlakatlarda diffuzionizmning yirik nomoyondalaridan biri ekanligi, AQShda Frans Boas "Amerika tarix maktabi"; diffuziya goyasining ingлиз etnologiyasiga kirishi va uniig taraqqiyoti Uilyam Rivers (1864-1922) nomi bilam bog'liqligi, Yevropa etnologiyasida diffuzionizm bilan deyarlik bir paytda sotsiologik yo'nalishning ham shakllanishi, Sotsiologiya nazariyasining vatani Fransiya ekanligi, Emil Dyurk Geym (1858-1917) mazkur nazariya asoschisi ekanligi, Levi-Bryul qarashlari, XX asrning 20 yillardan Angliyada funksionalizmning vujudga kelishi va etnologiyada yetakchi yo'nalishga aylanishi, Amerika tarixiy maktabi: XX asrning 40-50 yillarda dunyo etnologiyasida, AQSh va Yevropada yangi ilmiy maktablarning paydo bo'lishi, ular orasida madaniy relyativizmni muhim o'rinc egallashi.

3- mavzu Etnologiyadagi zamonaviy konsepsiylar

Ikkinchiji jahon urushidan keyin mustamlakachilik tizimining yemirilishi etnologiyaning taraqqiyotiga ta'siri. Buyuk Britaniyada Maks Glyukman (1917-1975) yangi yo'nalish "neofunksionalizmning manchestr maktabi"ning yaratilishi, fransuz etnologiyasi so'nggi yillarda Levi-Stros goyalari ta'sirida bo'lsada Moris Godele, Klod Melisso va boshqa etnologlar. 80 yillarda

ijtimoiy biologiya maktabining qisqa muddatli yuksalishi ro'y berib, tez orada u o'z o'mini hozirga qadar Amerika madaniy antropologiyasida so'nggi yirik nazariya" bo'lib kelayotgan madaniy ekologiyaga topshirishi; Klifford va Rixard Ternerlar germenevtik yo'nalishni yaratishlari.

4- mavzu. Jahon xalqlarining klassifikatsiyasi tamoyillari

Jahon xalqlarining antropologik klassifikatsiyasi. Jahon xalqlarining lingvistik klassifikatsiyasi. Xo'jalik madaniy tiplar va tarixiy etnografik viloyatlar. Etnografiya fanining yo'nalishlari, metodologiyasi va ish uslubi. Shu bilan birgalikda etnografiya metodlari: yozma manbalar. xalq og'zaki ijodi, qiyosiy tilshunoslik, statistik metod, dala tadqiqotlari, etnografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

5-mavzu. Avstraliya va Okeaniya xalqlari etnologiyasi

Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tabiiy-geografik sharoiti. etnogenezi va etnik tarixi muammolari. Avstraliya va Okeaniyaning tarixiy madaniy rayonlarga bo'linishi. Avstraliya va Okeaniya xalqlarining tarixiy joylanishi va ularning mustamlakachilik davriga qadar xamda mustamlakachilik davridagi hayoti. Avstraliya va Okeaniya xalqlarining antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Avstraliya xalqlarining ijtimoiy va oilaviy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy urf-odatlari, xalq ijodiyoti. Avstraliyaning yevropaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilishi va zamonaviy etnik guruhlarning tarkib topishi. Polineziyaliklarning kelib chiqishi va Polineziya orollarida joylanishi haqidagi gipotezalar va rivoyatlar. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyalari, tub mashg'ulotlari. Baliq ovlash aholi dengizchilikning ahamiyati. Hunarmandchilik. Oila-nikoh va urug' jamoa munosabatlari. Ilk davlatning shakllanish jarayoni. Ma'naviy madaniyati. Tabiat xudolariga sig'inish. Ajdodlar va dohiylarga sig'inish. Ilk yozuvning shakllanishi. Folklorlar. Mustamlakachilik natijasida vujudga kelgan yangi etnik guruhlar. Melaneziya va Yangi Gveniya orollarida tub aholining joylanishi, etnogenezi va tarixiy jarayoni. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyalari. Xalq san'ati va ijodi. Mustamlakachilik natijasida vujudga kelgan yangi etnik guruhlari. Mahalliy elat va xalqlarning etnogenezi va joylashish jarayoni.

6-mavzu. Osiyo xalqlari. G'arbiy Osiyo xalqlari etnologiyasi

Tarixiy-geografik oblastlar. Tabiiy sharoiti va paleoantropologik topilmalar. Etnik jarayonning o'ziga xosligi va etnogenetik muammolarining umumiyl tavsifi. G'arbiy Osiyo xalqlarining etnogenetik jarayoni va etnik tarixi. Xo'jalik-madaniy tiplar. O'troq dehqonchilik va ko'chmanchilik elat va xalqlar sotsial-iqtisodiy va maishiy turmushi munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Tub aholining moddiy madaniyati, jahon dinlari va ularning roli. Tarixiy va zamonaviy etnogenetik jarayonlar va madaniy munosabatlari. Mahalliy elat va xalqlarning irqiy tuzilishi va lingvistikasi. Kavkaz xalqlari. Antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Etnogenetik muammolari.

An'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati. Urug' va jamao munosabatlарining feudal patriarchal tuzumi taraqqiyotida o'ziga xos o'rni. Oila nikoh va ijtimoiy turmushi. Madaniyat va din: Islom, yahudiylik, xristianlik va qadimiy diniy sarqitlari. Xalq ijodi va ommaviy o'yinlar.

7-mavzu. Janubiy Osiyo xalqlari etnologiyasi

Janubiy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Aholining etnik tarkibi va tarixi. Til oilalari va antropologik guruhlar. Tarixiy rivojlanish jarayonining o'ziga xosligi. Tarixiy etnografik guruhlar va xo'jalik-madaniy tiplar. Sotsial-iqtisodiy munosabatlarning uziga xosligi, moddiy va ma'naviy madaniyat. Oila nikoh munosabatlari. Islom va induizm dinlari. Jaynizm va boshqa diniy oqimlar. Ibtidoiy dinlar. Xalq ijodi va san'ati.

8-mavzu. Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi

Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Janubiy Osiyo aholisining etnik guruhlari tarkibining shakllanish muammolari. Til oilalari va antropologik guruhlar. Tarixiy etnografik oblastlar. Dehqonchilik. Chorvachilik. Xo'jalik-madaniy tiplar. Moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari. Ijtimoiy a Oilaviy — maishiy turmushi. Mahalliy buddizmning o'ziga xosligi na Filippindagi xristianlik. Indoneziyada islom induizm sarqitlari. Ibtidoiy diniy tasavvurlar. Xalq ijodi va ommaviy o'yinlar.

9-mavzu. Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi

Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Tarixiy etnografik oblastlar va xo'jalik madaniy tiplar. Xitoy xalq etnogenezi va etnik tarixi. Xitoy aholisining etnik qiyofasi va tiplari. Antropologik va lingvistik guruhlar. An'anaviy xo'jaligi, moddiy madaniyati. Tibet xalqlari. Etnik tarkibi va xususiyati xo'jalikning qadimiy va zamonaviy shakllari. Yapon xalqlarining etnogenetik muammolari. An'anaviy xo'jalik — madaniy tiplari va ijtimoiy-maishiy turmush shakllari xarakteristikasi. Koreya xalqlari etnogenezi va etnik tarixi. Yangi davrda zamonaviy aholining moddiy va ma'naviy madaniyati va ularning rivojlanishi.

10-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi

Tibet, Mongoliya, Sin-Szyan, Oltoy, Tarixiy-etnografik oblastlar va etnik guruhlar. Etnogenetik muammolari va etnik tarixi. Etnogenetik jarayonlar: elat va xalqlarning qo'shilishi, aralashishi va umumiy xususiyatlari. Lingvistik tuzilishi: eroniylar turklari. Antropologik tiplari. xo'jalik madaniy mashg'ulotlari: dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik. Dehqonchilikda an'anaviy agrotexnikaning ahamiyati. Oila — nikoh va ijtimoiy munosabatlari. Markaziy Osiyo aholisining hozirgi etnik qiyofasi va o'ziga xos xususiyatlari.

11-mavzu. Shimoliy va Sharqiy Afrika xalqlari etnologiyasi

Hududiy jihatdan Shimoliy Afrikaga: Jazoir, Misr, Liviya, Mavritaniya,

Marokash, Sudan, Tunis: Shimoliy-sharqiy Afrikaga Jibuti. Somali. Eritreya, Efiopiya kirib umumiy aholisi 224 mln kishidan kuprok. Shimoliy Afrika aholisi yevropeoid irqini o'rtá yer dengizi tipiga kirishi; Sahroi Kabir, Sudan Efiopiyaning janubida negroidlar yashasa, Shimoliy-Sharqiy hududlar asosiy aholisi habashlar ekanligi. Afroasiyo til oilasi: semit, hamit, barbar til guruhlari. Hududning janubida niger-kordafan til oilasi, qisman nil-sahro tillari xam tarqalgan. Etnik tarix hududni qadimgi Misr sivilizatsiyasi vatanı ekanligi. Aholining asosiy mashg'ulotlari: dehqonchilik, chorvachilik, baliq ovlash. Misr an'anaviy dehqonchiligi yerni haydash, yerga ishlov berish. Fallohlar qishloqlari. Uylari somonli loylardan qurilgan, tekis tomlı, kiyimlari uzun ko'ylik, keng ishton, ustidan galabiya kiyilishi. Efiopiya bug'doyni, kofeni vatanı, dehqonlar qalampir. piyoz, qovoq, bodring yetishtirishgan. Somalida omonga yaqinda o'tilib, uchi o'tkir tayoq-sukalandan foydalanishning davom etishi. Mandullo - rejada aylana shaklida, derazasiz, uchi somondan yopilgan tom, devorlari to'kilgan sinch-ustidan loy bilan suvalishi. Ishlov berilgan yumshoq, yog'ingarchilik o'tmaydigan terilar yog'ochdan sinchlari ustidan tortilishi ko'chmanchilarda amzala-musika asbobi ko'magida ayollar. shoir, qo'shiqchi, musiqachi, baxshilar bo'lishgani. Tuareglar kiyimlari murakkab: ganduru, burmus, yellarda yumshok teridan-tunina. Erkaklar ham ayollar ham taqinchoqlarni yoqtirishlari. Somalilarni ko'pchiligi xam ko'chmanchilik bilan shug'ullanishi. Shahar madaniyati. Shaharliklar kiyimlari, shaxarlar aholisini murakkab etnik tarkibli ekanligi. Dirlari va xalq madaniyati.

12-mavzu Markaziy (Tropik) va Janubiy Afrika xalqlari etnologiyasi

Markaziy (Tropik) va Janubiy Afrika xalqlari. Markaziy Afrikaning geografik, antropologik va lingvistik tavsifi. Xulul xalqlari til oilalari, antropologik guruhlari, xo'jalik faoliyatları, diniy tasavvurlarining xilmassisligi. Afrika etnik xaritasi. Tropik Afrika xo'jaligi va madaniyatları. O'zlashtirish xamda chorvachilik, dehqonchilik xo'jaliklari. Daydichilik xo'jalik-madaniy tiplari cho'l, quruq savanna va ekvatorial o'rmonlarni daydi ovchi xamda terimchilari. XIX XX asrlar chegarasida "yangi davr zonalari" yuqori taraqqiy etgan dehqonchilik, chorvachilik tropik plantatsiya dehqonchiligining shakllanishi. Ekvatorial mintaqada dehqonchilik asosi - yerildizli ekinlar (yams, cassava) ekanligi. Qora Afrikaning chorvador xalqlari. Aholida hunarmandchilikning holati, temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, chorvadorlarning mohir terichilar ekanligi. Markaziy Afrika xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati. Afrikaliklar uy-joylari turli-tumanligi, xo'jalik madaniyati bilan bog'langanligi, ko'chmanchilarni yengil teri yoki bo'yralar bilan yopilgan chaylalarda yashashi.

13-mavzu. Shimoliy Amerika xalqlari etnologiyasi

Amerika xalqlari umumiy ma'lumot. Tarixiy-geografik oblastlar. Tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi. Etnik jarayonning o'ziga xosligi va etnogenez muammolarining umumiy tavsifi. Amerikaga insonlarning kelishi va etnogenez muammolari. Hindularning kelib chiqishi haqidagi faraz va

mulonazalar. Amerika tub aholisi (Markaziy va janubiy amerikalik hindular)ning antropologik lingvistik tavsifi. Buyuk geografik kashfiyotlar va Yevropa mustamlakasining Amerika tub aholisining taqdiriga ta'siri. Migratsiya masalalari Shimoliy Amerikaning indeys va Yevropadan kelgan xalqlari. "Amerika millati" muammosi. Shimoliy Amerika hindular tarixini o'rganish muammosi. Mahalliy etnik guruhlarning shakllanishi va xo'jalik-madaniy tiplar. Kanada aholisining shakllanishi. Indeyslar, yevropaliklar va afrikaliklarning yangi etnik jarayonidagi roli haqida hozirgi millatlarning shakllanishi. Qadimiy paleoxindu madaniy an'analar: 1) Markaziy dasht mintaqada joylashgan yirik qush ovchilari madaniyati; 2) Shimoli-g'arbiy Tinch okeani ovchi-terimchilari kordiler madaniyati. Vudlend madaniyati. "Kochiz", "mogolon", "xoxokam" va "anasazi" madaniyatlar. Shimoliy Amerikadagi eng qadimgi madaniyatlar sifatida hamda ularning tavsifi. Arktika ovchilari va baliqchilari. Eskimos va Aleutlar etnologik tavsifi. Shimoli-g'arbiy soxil xindulari. Shimoli-g'arbiy sohil hindulari: tinkitlar, kvakuitli, xayda, kaluza hindulari. O'rmon ovchi qabilalari: algankin oilalariga mansub ovchi, balikchi va terimchi qabilalari. Kaliforniya hindulari. Sharqiy va Janubi-Sharqiy rayonlarda dehqonchilik va o'rmon ovchi qabilalari. "Beshta qabila ittifoqi" yoki "Irokezlar ligasi". Preriya (dasht) ovchi qabilalari. Ijtimoiy tuzum, moddiy va ma'naviy madaniyat. Markaziy Amerika xalqlarni etnologiyasi.

14-mavzu. Markaziy Amerika xalqlari etnologiyasi

Etnogeografik va tabiiy sharoitining tavsifi. Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi. Meksikaning tub aholisi. Meksika aholisining etnogenezi va etnik tarixi. Asteklar davlati. Mayya davlati. Chibcha-muisklar davlati. An'anaviy xo'jalik xususiyatlari. Ijtimoiy tuzum, moddiy va ma'naviy madaniyat. Janubiy Amerika xalqlari etnologiyasi.

15-mavzu. Janubiy Amerika xalqlari etnologiyasi

Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili aholisining etnik qiyofasi va xo'jalik madaniy tiplari. Amerika aholisida zamonaviy etnik guruhlarning shakllanishi. Zamonaviy Amerikaning lingvistik xususiyatlari. Braziliya va Pampa hindulari. Peruning qadimgi dehqonchiligi. Olovli yer va tropik ovchilar. Tub aholining ijtimoiy va maishiy turmushi. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Lingvistik xususiyatlari.

16-mavzu. Yevropa xalqlari etnologiyasi

Tarixiy-etnografik oblastlar. Etnik guruh va til oilalari. Etnogenet va etnik tarix muammolari. "xalqlarning buyuk ko'chishi" jarayonining ahamiyati. O'rta asr migratsiyasi. Etnik chegaralarning shakllanishi. G'arbiy va Sharqiy Yevropaning an'anaviy mashg'ułotlari. Moddiy madaniyat xususiyatlari. Sotsial-iqtisodiy va oilaviy-maishiy munosabatlar. O'rta asr jamoasining roli. Ma'naviy madaniyat. G'arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari etnologiyasi.

17-mavzu. G‘arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari etnologiyasi

G‘arbiy Yevropa xalqlarining geografik, antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Etnogenezi va etnik tarixi. An'anaviy xo'jalik xususiyatlari. Roman-german va anglo-saks xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati. German, roman, kelt tilida so'zlashuvchi davlatlarda zamonaviy etnik jarayonlar.

18-mavzu. Sharqiy Yevropa slavyan xalqlari etnologiyasi.

Sharqiy Yevropa slavyan xalqlari etnologiyasi. Slavyan xalqlarining etnik tuzilishi va qiyofasi. G‘arbiy va sharqiy slavyanlar. Etnogenezi va etnik tarixi. Antropologik guruhlari. Slavyan xalqlari tarkibidagi etnografik guruhlar. Sharqiy Yevropa slavyan xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati.

19-mavzu. Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaning noslavyan xalqlari etnologiyasi

Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaning noslavyan xalqlari etnologiyasi. Shimoliy va Janubiy Yevropa noslavyan xalqlarining antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi, moddiy ma'naviy va madaniyati xususiyatlari. Tarixiy-etnografik oblastlari. Vengriya xalqlari. Sharqiy Yevropaning fin tilida so'zlashuvchi xalqlari. Ularning xo'jalik-madaniyti tiplar. Xo'jalik, moddiy va ma'naviy madaniyatining an'anaviy ko'rinishlari. Jahon madaniyati rivojidagi Yevropa etnoslarining roli. Tarixda inson bosib o'tgan yillarni to'g'ri tushunib yetish maqsadida etnografik bilimlarning ahamiyati. Xalqlarning bugungi kuni va kelajakka intilishida etnografik bilimlarning lozimligi. Milliy mustaqillik harakati hozirgi milliy uyg'onish jarayoni.

20-mavzu. Kavkaz xalqlari etnologiyasi

Gruzin, ozarbayjon va arman xalqlarining geografik, antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi. Etnik guruh va til oilalari. Etnogenezi va etnik tarixi. An'anaviy xo'jalik xususiyatlari. etnologik klassifikatsiyasi. An'anaviy mashg'ulotlari. Turar-joylari, kiyim kechaklari va taqinchoqlari. Taomlari. Oilaviy-maishiy turmush an'analari va urf-odatlari. Ma'naviy madaniyati

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi va tadqiqot usullari
2. Etnologiyadagi zamonaviy konsepsiylar
3. Jahon etnologiyasi faniga kirish va tadqiqot uslublari.
4. Jahon etnologiyasi fani tarixi va nazariy-ilmiy yo'nalishlar.
5. Klassifikatsiyalar va ularning turlari.
6. Avstralija va Okeaniya xalqlari etnologiyasi.
7. Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati
8. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi

- | | |
|--|--|
| | <ol style="list-style-type: none"> 9. Afrika xalqlari etnologiyasi 10. Amerika xalqlari etnologiyasi 11. Yevropa xalqlari etnologiyasi 12. Kavkaz xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati |
|--|--|

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar.

"Jahon etnologiyasi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazari bilimlarini mustahkamlash va ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lif tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Dunyo xalqlarining til (lingvistik) klassifikatsiyasi: yirik til oilalari, oltoy til oilasi va kamyob tillar haqida.
2. Etnogenet va antropogenez muammolari.
3. Aborigenlar va angloastraliyaliklar: o'zaro munosabatlari tarixi.
4. Avstraliya milliy madaniyati.
5. Papuastrar va melaneziyaliklar madaniyati.
6. N.N. Mikluxo-Maklayning fanga qo'shgan ilmiy hissasi.
7. Polineziyaliklar dini va mifologiyasi
8. Tur Xayerdalning "Kon-Tiki" kemasidagi sayohati.
9. Polineziyaliklarnig kelib chiqishi.
10. Misr va misrliklar: falloxlар urf-odatlari.
11. Tuareqlar madaniyati.
12. Efiopiya xalqlari urf-odatlari va irimlari.
13. Afrika xalqlari ertaklari..
14. Bushmenlar hayotinng xarakterli jihatlari.
15. Gottentotlar

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

V. Ta'lif natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

Jahon etnologiyasi fanining maqsad va vazifalari, dunyo xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jalik xususiyatlari, etno-madaniy jarayonlari, ilmiy qarashlari, madaniyatlarining zamonaivylashib borish jarayoni masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni bilishi kerak; talaba tarixiy

	ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish etnografik muzey ashyolari va internet ma'lumotlarni, arxeologik etnologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamao bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va jiriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Doniyorov A.X., Bo'riev O., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Darslik. Toshkent: ENFI, 2020. 2. Salimov T.O. Jahon xalqlari etnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Donishmand ziyosi". 2020y. 366 b. 3. Ashirov A.A. Etnologiya. O'quv qo'llanma.-T... 2014. 340 b. 4. Этнология. (Под ред. Миськовой Е.В. Мехедова Н.А. Пименова В.В) М... Изд-во «Культура» 2005. 4. Жабборов Исо. Жаҳон этнографияси асослари. Тошкент. "Янги аср авлоди", 2005. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Т.: "O'zbekiston", 2017. 6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Т.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: "O'zbekiston", 2017. — 48 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – Т.: "O'zbekiston", 2017. — 488 b. 9. Жабборов Исо. Ўзбек халки этнографияси. Тошкент. 1994 10. Жабборов Исо. Ўзбеклар. Турмуш тарзи ва маданияти. Тошкент.2003

Меб

- | | |
|--|--|
| | <p>11. Традиционная культура народов Передней и Средней Азии. Л., 1970.</p> <p>12. Этническая история народов Азии. М., 1972.</p> <p>13. Этнография питания народов стран зарубежной Азии. М., 1981.</p> <p>14. Страны и народы. Зарубежная Азия. Общий обзор. Юго-Западная Азия. М., 1979.</p> <p>15. Страны и народы. Зарубежная Азия. Восточная и Центральная Азия. М., 1982.</p> <p>16. Страны и народы. Зарубежная Азия. Южная Азия. М., 1982</p> <p>17. Страны и народы. Африка. Общий обзор. Северная Африка. М., 1982.</p> |
|--|--|

Axborot manbalari

- 18. www.istedod.uz
- 19. www.google.uz
- 20. <https://mfa.uz>
- 21. <http://diss.natlib.uz/>
- 22. www.sentrasisva.ru

7.	O‘quv dasturi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 202__ yil “___” _____ dagi “___” -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
----	--

O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022 - yil “30 06” dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8.	Fan/modul uchun mas’ullar:
----	-----------------------------------

- | | |
|----------------|---|
| A.X. Doniyorov | TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori |
| M.M. Askarov | TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi dots. v.b., PhD |

9.	Taqrizchilar:
----	----------------------

- | |
|---|
| I.M. Haydarov – TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi dots., DSc |
| B.A. Odilov – TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi dots. v.b., PhD |